

INGLIZ TILIDA LEWIS CARROLNING “HOW DOTH THE LITTLE CROCODILE” SHE’RINING STATISTIK TAHLILI

Boboyev Temur,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Tilshunoslikda statistik ma’lumotlarni til hodisalariga tatbiq etish natijasida til birliklari, lingvistik hodisalar, matnlar statistik tahlil qilinadigan soha rivojlandi. Matnning statistik tahlili - tilning ehtimollik xususiyatlari bo‘yicha tahlili, lisoniy hodisalarning statistik xususiyatlariga asoslangan baholash degan ma’noni anglatadi. Ehtimollik – til birligining gap yoki matnda paydo bo‘lish chastotasi (tezligi) hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: alliteratsiya, assonans, statistika

Tilshunoslik va boshqa fanlar uchun statistik tahlil usuli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ko‘rib chiqilayotgan til hodisalari matematik omillar yordamida maxsus baholanadi va tekshiriladi. Hodisalar holatini bildiruvchi statistika lotincha so‘zdan olingan bo‘lib “holat” ma’nosini bildiradi. “Status” (davlat), “statusta” (davlatni biluvchi) va “statustica” (davlat) so‘zlarining ildizi bo‘lib, so‘zlarning kelib chiqishi haqida ma’lum bilimlar yoki tafsilotlar to‘plamini bildiradi. 3500 yil oldin Qadimgi Misrda aholini ro‘yxatga olish o‘tkazilgan. Rossiyada Pyotr I hukmronligi davrida o‘tkazilgan “aholi tekshiruvi” va Angliyadagi “Dahshatli sud kitobi” dastlabki statistik ma’lumotlarga misol bo‘la oladi. Quyida L. Carrolning “Alice’s Adventures in Wonderland” asaridan olingan “How doth the little crocodile” she’ridagi [l], [s] va [n] sonorlarining alliteratsiyani hosil qilishdagi statistik tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Alliteratsiya

Ingliz, o‘zbek, rus tilidagi hajviy she’rlar mualliflari ijodida fonetik hodisalardan alliteratsiya hamda assonans ko‘p uchraydi. Asosan, she’rlarda ritmlilikni, ohangni va o‘ziga xos so‘z o‘yinlarini hosil qiluvchi bu holatlar she’rdagi so‘zlarning semantik ma’nosidan ko‘ra ko‘proq ularning pragmatik ma’nosiga ta’sir qiladi. Ingliz shoiri L. Carrolning “Alice’s Adventures in Wonderland” asaridan olingan “How doth the little crocodile” she’rida [l], [s] va [n] sonorlarining alliteratsiyani hosil qilishdagi statistik tahlili amalga oshirildi.

How doth the little crocodile,

Improve his shining tail,

How cheerfully he seems to grin,

How neatly spread his claws.

And welcome little fishes in,

With gently smiling jaws.

[L] harfi she’r tarkibida 10 ta so‘zni qamrab olib, bular: *little, crocodile, tail, cheerfully, neatly, claws, welcome, little, gently, smiling* leksemalarida jami 13

marta qo'llanilgan. 1 qatorda: 3 o'rinda, 2 ta so'zda (little, crocodile), 2 qatorda: 1 ta so'zda (tail), 3 qatorda: 1 marta (cheerfully), 4 qatorda: 2 ta so'zda (neatly, claws), 5 qatorda: 2 ta so'zda (welcome, little) va 6 qatorda: 2 ta so'zda (gently, smiling). [S] undoshi 9 ta so'zda 9 o'rinda qo'llanilgan. Ingliz alifbosida s+h; harflari matnda yonma-yon kelib, sh [ʃ] talaffuzini beradi va undagi -s; harfi alliteratsiyani hosil qilmaydi. Masalan, *shining* va *fish* so'zlari.

2 qatorda: 1 marta (his), 3 qatorda: 1 marta (seems), 4 qatorda: 3 marta (spreads, his, claws), 5 qatorda: 1 marta (fishes) va 6 qatorda: 2 marta (smiling, jaws).

[N] sonori 7 ta so'zda ishlatilib, 8 o'rinda takrorlangan. Bular: *shining*, *grin*, *neatly*, *and*, *in*, *gently*, *smiling*. 2 qatorda: 1 marta (shining), 3 qatorda 1 marta (grin), 4 qatorda: 1 marta (neatly), 5 qatorda: 2 marta (and, in), 6 qatorda: 2 marta (gently, smiling).

Alliteratsiya ni hosil qilgan harflar	Tovushlarnin g takrorlanish statistikasi	She'r matnining nechta qatorida takrorlanadi	So'zdagi o'rni		
			So'z boshid a	So'z o'rtasid a	So'z oxirid a
[l]	10	6 (1,2,3,4,5,6)	2	8	1
[s]	9	5 (2,3,4,5,6)	2	-	6
[n]	8	5 (2,3,5,6)	1	3	2
Umumiy statistikasi	27		5	11	9

Statistik tahlildan ma'lumki, so'z oxirida -s; undoshining ko'p uchrashiga sabab, ingliz tilida -s; harfi asosan III-shaxs birlikdagi *he*, *she* va *it* olmoshlari hamda shaxs ismlaridan keyin kelgan fe'llarga suffiks sifatida qo'shilishi va otlarda ko'plik kategoriyasini hosil qilishi natijasida alliteratsiyani hosil qiladi. Carrolning bu she'rida [l] harfi eng ko'p alliteratsiya holatini hosil qilishiga sabab, oddiy so'zlardan tashqari 3 o'rinda (cheerfully, neatly, gently) -ly; suffiksi sifatlarga qo'shib kelib ravishni yasashda ishlatilganligi va talaffuzda [l] ishtirok etishi bilan xarakterga ega.

Assonans

L. Carrolning ushbu she'rida asosan [o], [i] unlilari ([ea], [ee] diftonglari ham -i; tovushini beradi) harf birikmasi takroran qo'llanilib assonansni hosil qilgan.

[O] unlisi 8 ta so'zda 9 marta takrorlangan. 1 qatorda: 3 ta so'zda 4 marta (how, doth, crocodile), 2 qatorda: 1 marta (improve), 3 qatorda: 2 marta (how, to), 4 qatorda: 1 marta (how), 5 qatorda: 1 marta (welcome).

[I] harfi 10 ta so'zda 10 marta takrorlangan. 1 qatorda: 1 marta (little), 2 qatorda: 3 marta (improve, his, shining), 3 qatorda: 1 marta (grin), 4 qatorda: 1

marta (his), 5 qatorda: 3 marta (little, fishes, in) va 6 qatorda: 2 marta (with, smiling). Ingliz tilida -i; -o; -u; -a; -e; yumshoq va qattiq unlilar talaffuzda fonetik qoidalarga asosan o'zgaradi. Masalan, *shining* so'zida 2 ta -i; harfi bo'lsada, talaffuzda 2-bo'g'inda kelgan [i] assonansni hosil qiladi. Bu ularning transkripsiyasiga bog'liq. Lekin assonansning asosida talaffuz borligini hisobga olsak, ingliz tilidagi talaffuzi bir xil bo'lgan harf birikmalari ham assonansni hosil qiladi. Masalan, *neat, spread, see, sea, tea, seem, cheer, cheat* so'zlarida [ea] [ee] harf birikmalari [i] tovushini beradi. Shunday ekan, she'rning 3-qatoridagi *cheerfully, seems, grin*; 4-qatordagi *neatly, spread, his* so'zlarida [i] tovushi assonansni hosil qilgan.

Assonansni hosil qilgan harflar	Tovushlarning takrorlanish statistikasi	She'r matnining nechta qatorida takrorlanadi	So'zdagi o'rni		
			So'z boshida	So'z o'rtasida	So'z oxirida
[o]	9	4 (1,3,4,6)	-	4	-
[i]	10	6 (1,2,3,4,5,6)	1	7	-
[ea] (i)	2	1 (4)	-	2	-
[ee] (i)	2	1(3)	-	2	-
Umumiy statistikasi	23		1	15	

L. Carrolning hajviy she'rida assonans hodisasi alliteratsiyaga nisbatan bir muncha kam. Buning sababi, assonansni hosil qiluvchi unlilar ingliz tilida yumshoq va qattiq guruhlariga bo'linishi va natijada o'qish qoidasi bo'yicha ular turli tovushlarni bildirishi bilan izohlanadi. Undosh tovushlar o'zgarish xususiyatiga ega bo'lmaganligi uchun alliteratsiya hodisasi aksariyat hollarda ko'p uchraydi. Umuman, ingliz she'riyatida unli harflar turlicha o'qilishi sababli aynan bir unlini ketma-ket assonansni hosil qilishi kam uchraydigan holatdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Курочкин В. Стихотворения статьи фельетоны, Художественной литературы. – Москва: 1957. – 761 с.
2. Carrol L. Alice's adventures in Wonderland. - England, 2000, - 105 p.
3. <https://www.familyfriendpoems.com/poems/famous/funny/>
4. https://vk.com/@pereplete_poet-alliteraciya-i-asonans-v-russkom-yazyke-i-literature